
ISTIQLOL MAHALLASIDAGI ELEKTR TARMOQLARIDA JORIY TA'MIRLASH ISHLARI OLIB BORILMOQDA

Toshloq tumanida aholiga elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berish borasida ayni kunlarda keng ko'lamdagi ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Aholidan tushayotgan murojaatlarga asosan, tuman elektr ta'minoti korxonasi tomonidan o'rganishlar olib borilmoqda. Mutaxassislar muammolarni o'z vaqtida bartaraf etib, elektr qurilmalarini joriy va mukammal ta'mirlamoqdalar.

Hususan, "Istiqlol" MFYdagi Birdamlik ko'chasida yashovchi fuqarolarning murojaatiga asosan, aholi xonadonlaridagi elektr uzatish tarmog'ida ta'mirlash ishlari olib borildi. Shu kunni o'zida muammolar to'liq bartaraf etildi.

Bu boradagi ishlar bilan birgalikda mahalliy aholi xonadonlarining elektr ta'minoti jihozlarini ko'zdan kechirish ishlari ham davom ettirilmoqda.

2023-06-02 19:22:52